

1/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



1/2024

<https://buxdu.uz>

INGLIZCHA VA O'ZBEKCHA DINIY MATNLAR KOPRUS TAHLILIDA ISLOMIY TERMINLAR VA IBORALAR TADQIQI

*Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li,
Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti dekani, PhD, dotsent
n.b.ataboyev@buxdu.uz*

*Abdullayeva Nigina Abdukadirovna,
Buxoro davlat universiteti Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik
tarjimashunoslik magistranti
n.a.abdullaeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. Bu maqola ingliz va o'zbek tillarida diniy matnlar tahlilini olib borishga, shuningdek, korpus tahlilini aniq va mukammal tushunish uchun jami sanab chiqilgan diniy terminlarning statistikasi va natijasini korpus yordamida va korpusiz tahlildagi farqlar va natijalar bilan bo'lishadi. Maqolaning asosiy maqsadi tilshunos sifatida diniy terminlarning yangiligiga xizmat ko'rsatish va ularning dolzarbligiga urg'uni berishga qaratilgan.

Kali so'zlar: korpus, korpus lingvistikasi, diniy atamalar, so'zlar chastotasi, diniy terminlar, Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf, "Baxtiyor oila", namoz, nikoh, mahr, quloqqa azon va takbir, duo, tarbiya, burch, sog'liq, harom narsalar, isrof va qizg'anchilik.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИСЛАМСКИХ ТЕРМИНОВ И ФРАЗ В КОРПУСНОМ АНАЛИЗЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация. Целью этой статьи является анализ религиозных терминов как на узбекском, так и на английском языках, и она даёт чёткое понимание корпусного анализа путём сравнения статистики и выявления различий в результатах подсчёта терминов в религиозных текстах с помощью корпусных средств и без них.

Ключевые слова: корпус, корпусная лингвистика, религиозные термины, частотность слов, религиозные термины, шейх Мухаммад Садик Мухаммад Юсуф, «Счастливая семья», молитва, брак, приданое, азан и такбир, молитва, воспитание, долг, здоровье, запрещённые вещи, расточительность и зависть.

A RESEARCH OF ISLAMIC TERMS AND PHRASES IN THE CORPUS ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEKI RELIGIOUS TEXTS

Abstract. This article intends to analyze religious terms both in Uzbek and English languages and gives a clear understanding of Corpus analysis through comparing the statistics and finding differences in results of counted terms within religious texts via and without corpus aids. The main aim of this article is finding novelty and giving stress in actuality of religious terms as linguists.

Keywords: Corpus, corpus linguistics, religious terms, frequency of words, religious terms, Shaykh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf, "Happy Family", marriage, circumcision, dowry, adhan and takbir, dua, upbringing, duty, health, forbidden things, extravagance and jealousy.

Kirish. Hozirgi tez rivojlanayotgan zamonda xorijiy tillarning o'rganilishi, undagi tadqiqotlarning olib borilishi, tillar tahlili, qiyoslanilishi, tarjimasi va tildagi terminlarni tushunish, hisobini yaratish, statistikasini olib borish, eng ko'p duch keladigan terminlarni aniqlashda ham "Korpus"ning ahamiyati beqiyosdir. Undagi olib borilgan tadqiqotlar korpusdan foydalanilishi hisobida tez, oson, samarali va zamon bilan hamohang bo'lib chiqadi. Shuning uchun ham bu maqola aynan diniy terminlar tahlilida nega bizga korpus tahlili kerakligini ham isbotlab beradi.

Shunday qilib korpus o'zi nima, undan qanday foydalanilsa bo'ladi, uning turli tillardagi, ya'ni ingliz (Hind-Yevropa tillar guruhi) hamda o'zbek (turkiy tillar guruhidagi) diniy terminlar statistikasi, lug'atini yaratishdagi o'rnini ham bilib olishimiz mumkin.

"Korpus" so'zi lotinchadan olingan bo'lib u "tana" degan ma'noni anglatadi. "Korpus katta hajmli va tizimga solingan matnlar to'plamidan iborat til manbasi hisoblanadi. Korpus tilshunosligida ular ma'lum bir

til doirasida yoki tilning ma'lum bo'limida statistik tahlillarni amalga oshirish, qarashlarni, tildagi hodisalar yoki nazariy qoidalarini tekshirish uchun foydalaniladi". [8,6]

Korpus tahlili bizga nima uchun zarur?

1. Korpus yordamida yangi tildagi matnlarda uchragan so'zlarning tahlili olib borish mumkin
2. Tilni o'rganuvchi, unda tadqiqot olib boruvchilar uchun tahlillar natijalarini tezlashtirib beradi
3. Diniy matnlarni tushunishda, tahlil va tadqiq qilishda ham eng samarali usul hisoblaniladi.

Chunki u yordamida, matnlarda kelgan so'zlarning chastotasi aniqlanilib eng ko'p takror keluvchi terminlar statistikasi yaratiladi. [10]

4. Shuningdek, eng dolzarb va ko'p ishlatiladigan so'zlarning diniy terminlar lug'atini yaratishda ham bevosita xizmat qiladi

5. Hamda eng zamonaviy ingliz tiliga arab tilidan kirib kelayotgan so'zlarning yangiligini, o'zlashma so'zlar ekanligini ham ko'rsatib beradi.

Hozirgacha O'zbekistonda bir necha olimlar korpus sohasida o'zlarining keng tadqiqotlarini olib borganlar, jumladan: Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O'zbek tilining ta'limiy korpusi va uning imkoniyatlari bo'yicha, Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish borasida o'quv qo'llanma va bir necha ishlar olib borilgan.

Materials:

Korpus tahlili, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" asarlari

Metodlar

Ushbu maqolada, solishtirish (Comparative), Quantative (Miqdoriy sanash), Observation & Corpus analysis (Kuzatish tahlil) metodlari qo'llanildi.


Natijalar

Bu mavzu ustida ishlash davomida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" kitoblari tadqiqot uchun olinib, undagi 3-5 betlarda kelgan diniy terminlar soni avval *inson omili* asosida sanaldi. Unga ko'ra, 3 betni ko'zdan kechirib so'zlar soni aniqlash uchun taxminan 20 minut vaqt sarflanib,

- "Odam" termini 3 marotaba,
- "Nikoh" so'zi 6 marotaba,
- "Oila" so'zi 11 marotaba
- "Halol" so'zi 4 marotaba
- "Sunnat" so'zi 1 marta


• "Qiyomat" so'zi esa 2 marta kelganligi ma'lum bo'di. Agar butun bir asarni ko'zdan kechirib so'zlar sanog'i olinadigan bo'lsa, unda 490 betlik asar uchun taxminan 3 266,6 minut= 54,44 soat vaqt talab qilinardi ekan (1-chizma):



1-chizma. "Baxtiyor oila" asarining so'zlar chastotasi tahlili

Agar asarlardagi terminlar tahlili va tadqiqi oddiy kuzatish va solishtirish metodi asosida olib borilib sanog'i so'zlarning olib borilganida edi, unda juda ham ko'p vaqt sarflanilib, yig'iladigan ma'lumotlar

samarasi va natijasi korpus tahlili asosida beriladigan natijani bera olmasligi aniqlandi. Korpus tahlilning afzalliklarini quyidagi chizmada berishga harakat qildik (2-chizma):



2-chizma. Korpus tahlilning afzalliklari

Xulosa. Ushbu mavzu tadqiqi olib borilishi davomida quyidagi xulosalar aniqlandi:

A. Korpus: Tilshunoslikda korpus (ko'plikda corpora) yoki matn korpusi katta va tizimlangan matnlar to'plamidan (hozirgi kunda odatda elektron saqlanadi va qayta ishlanadi) iborat til manbayidir. Korpus tilshunosligida ular muayyan til doirasida statistik tahlillarni amalga oshirish va gipotezani tekshirish, tildagi hodisalarni kuzatish yoki nazariy lingvistik qoidalarni tekshirish uchun foydalaniladi. [11]

B. Hozirgacha diniy atamalar uchun korpus tahlili va tadqiqi bo'yicha O'zbekiston bo'ylab sanoqli ishlar mavjud, bu sohada talab ham yuqori.

C. Inson omili asosida olib borilgan korpus tahlili ham samarali ham vaqt jihatdan unumli hisoblaniladi. Masalan SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning Baxtiyor oila asarlari tahlili uchun faqatgina 3 bet uchun 20 minut ichida diniy terminlarning ozchilik soni aniqlandi, agar to'liq kitob tahlil qilinganda esa taxminan 55 soat yoki undan ham ko'proq vaqt ketgan bo'lardi. Qo'l mehnati orqali qilingan kuzatuvda "Oila" so'zi eng ko'p uchraydigan diniy termin bo'lib, 3 betning o'zida 11 marotaba taxminan takrorlangan. [7, 3-5b]

D. Biroq bu hisob-kitoblar Corpus dasturi asosida qilinganda esa taxminan 5 daqiqa sarflangan bo'lar edi.

E. Korpus lingvistikasida ishlash bizning milliy tilimiz-O'zbek va ingliz tillarining diniy terminlarini yig'ish, lug'atini yaratish va chastotasini aninqlashda bizga ancha qo'l beradi. Umid qilamizki, bu maqola asosida yig'ilgan ma'lumotlar foydali va nafl bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Базарова Б. Введение в корпусную лингвистику: учеб.-метод. пособие. -Улан-Удэ: Издательство Бурятского госуниверситета, 2016. -76 с. ISBN 978-5-9793-0939-2.
2. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. *Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta*. 2016;2 (38):12-014. -264 c
3. Brill E. 1995. Transformation-Based Error-Driven Learning and Natural Language Processing: A Case Study in Part-of-Speech Tagging // *Computational Linguistics*. Vol. 21. -P. 543-565. <http://acl.ldc.upenn.edu/J/J95/J95-4004.pdf> 12.

4. Johansson S. Some aspects of the development of corpus linguistics in the 1970s and 1980s // *Corpus Linguistics. An International Handbook* / eds A. Lüdeling, M. Kytö. Vol. 1. Berlin; New York: Walter de Gruyter, 2008. P. 33-53. 13.
5. O'zbek tili milliy korpusi - muhim madaniy voqelik (davra suhbat) / "Ma'rifat", 11.08.2021. № 32 (9357).
6. Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O'zbek tilining ta'limiy korpusi va uning imkoniyatlari. // O'zbekistonda til va madaniyat, -Toshkent: ToshDo 'TAU, 4/2021. -B. 60-75.
7. Абжалова М. Синонимайзер (синонимизатор) в образовательной корпусе узбекского языка. // *TurkLang -2021: Turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlash IX xalqaro konferensiyasi*.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Baxtiyor oila. – T., 2013.
9. Tursunov Sh. (Shokir Yo'ldosh) Korpus nima? (Korpus tilshunosligi) ILM VA TA'LIM. Wednesday, June 10, 2020 <https://shokiryuldash.blogspot.com/2020/06/korpus-nima-korpus-tilshunosligi.html>
10. Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh. Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2021. -167 b.
11. Баранов А.Н., Плузган В.А., Рахилина Е.В. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. – М.: Помовский и партнеры, 1993.
12. Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика: учебник. 2-е изд., перераб. -СПб.: Изд-во С.-Петербург. ун-та, 2011. – 215 с.
13. <http://uzbekcorpora.uz/korpushaqida/>.
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Matn_korpusi.